



Jadidlar merosidan foydalanib bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash

Jo'rayeva Gulhayo Axadovna

Shaxrisabz Davlat Pedagogika Insituti

"Ta'lim-tarbiya nazaryasi va metodikasi" mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy tarbiya, yoshlarni tarbiyalash metodlari va shakllarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan izlanishlar, tarixiy manbalarda ta'lim-tarbiya sohasining ta'limiy-axloqiy yo'nalishida yozilgan ko'plab asarlar o'rganish va tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini yoshlarda shakillantirish, shu bilan birga yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash, o'zgalar mehnatni qadrlashga o'rgatish, tengdoshlariga bo'lgan axloqiy tarbiyaviy munosabatlarni rivojlantirish, komil inson shaxsiy sifatlarini shakillantirish yo'llarini yo'llari, shuningdek pedagogik faoliyatimiz davimida qanday usul va vositalardan foydalansak, o'quvchilarga berayotgan ta'lim va tarbiyaga tezroq ko'nikma hosil qilishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, axloq, odob, ta'limiy-axloqiy yo'nalishi, metod, shakl, tadqiqotlar, oila, oliy ta'lim muassasasi, madaniy, ma'rifat, yuksak inson, odob, shakillanmoq, rivojlantirish.

Soyut: Bu makalede ahlak e'gitiimi uzerine araştırmalar, gençlerin eğitim yöntem ve biçimlerinin geliştirilmesi, tarihi kaynaklarda eğitim alanının eğitimsel ve ahlaki yönünde yazılmış birçok eserin incelenmesi ve analizi, bunların içeriği gençliğin özünü oluşturmaktadır. aynı zamanda gençlerin vatanseverlik duygularını eğitmek, başkalarına çalışmaya değer vermeyi öğretmek, akranlarıyla ahlaki ve eğitimsel ilişkiler geliştirmek, mükemmel bir insanın kişisel niteliklerini oluşturma yolları ve ayrıca pedagojik



eğitimimizin devamında yöntemin ne olduğu. araçlarını kullanırsak öğrencilere verilen eğitim ve öğretime yönelik becerileri daha hızlı oluşturacağı düşünülmektedir.

Anahtar kelimeler: eğitim, yetiştirme, ahlak, görgü, eğitim-etik yönelim, yöntem, biçim, araştırma, aile, yüksek öğretim kurumu, kültür, aydınlanma, yüksek insan, görgü, oluşum, gelişme.

Abstract: In this article, we will study and analyze the research conducted on the development of moral education, methods and forms of educating young people, many works written in the educational and moral direction of the field of education in historical sources, and their content. - forming the essence in young people, at the same time educating young people's feelings of patriotism, teaching others to appreciate work, developing moral and educational relations with peers, forming the personal qualities of a perfect person. Also, we have learned that what methods and ways we use in the course of our pedagogical activity, the education and training we provide to students will create skills faster.

Key words: education, upbringing, ethics, manners, educational-ethical orientation, method, form, research, family, higher educational institution, cultural, enlightenment, high man, manners, formation, development.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy -axloqiy tarbiyalash bu murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi, o'quvchilar asosan, dastlabki ta'limni oila davrasida oladi. Atrof muhitdan to'plangan bilimlar majmuasi esa ma'naviyat va axloqni shakillantiradi. Har xil yoshdagi bolalar ulg'ayganlari sari tashqi muhitdagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tanqidiy qaraydigan bo'lib qoladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa o'z ustoziga taqlid qila boshlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga o'rnak bo'la oladigan darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining qay darajada axloqli yoki axloqsiz bo'lishi, bilimli bo'lishi uning dastlabki tarbiyasi oila muhitiga bog'liqdir. Oilada yaxshi tarbiya ko'rgan bola ta'lim olishda ham qiyinchilikka duch kelmaydi, chunki u o'zida ta'lim axloq va ma'naviyat kabi tushunchalarni shakillantirgan bo'ladi. Axloq va ma'naviyat



chuqur ichki o‘zaro aloqadorlikda shakillanadi. Demak, ma’naviyat individ mansub bo‘lgan guruhlar axloqi ta’sirida rivojlanadi, axloq esa, o‘z navbatida, guruh a’zolari bo‘lgan individlar ma’naviyatining o‘zaro bir biriga bo‘liq ommaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichidir.

Shunday ekan, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishish qiyin. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga egadir.

Axloq (arabcha - xulq-atvor degan ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar jamlanmasidir. Axloq - shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatlardagi munosabatlari boshqarish apparatidir. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg‘unlashtirish uchun ham xizmat qiladi. Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o‘zlariga odamlar orasidan o‘rnak bo‘ladiganlarini tanlaydilar. Axloqiy me’yorlar har bir inson va jamiyat bilan uyg‘unlikda mavjud bo‘ladi. Zero, prezidentimiz aytganlaridek: Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta’lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi.



Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

1. Birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;
2. Ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;
3. Uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
4. To'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeyi va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;
5. Beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;



6. Oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.¹

Yoshlarni har tomonlama yetuk barkamol shaxsetib tarbiyalash biz o'qtuvchilar oldidagi burchimiz hisoblanadi. Zero, Buyuk chex olimi, pedagog Ya.A.Komenskiy har bir bola tarbiyata'lim olishi lozimligini o'z asarlarida keltirib o'tgan. Komenskiy fikricha, tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iborat bo'lib, uni aqliy, axloqiy va diniy tarbiya bilan amalga oshirish mumkin. U bolaga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun yosh xususiyatini hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek buyuk jadidchi bobolarimizda bir Abdulla Avloniy ham O'zlarining asarlarida ya'ni "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlarining "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikda berilishi kerakligini, bu ishga hammani: ota – ona o'qituvchi, hukumat, mahalla, oila, va boshqalarning ham bola tarbiyasiga e'tiborli bo'lishga chorlaydilar. Abdulla Avloniy aytganidek tarbiya xususiy ish emas, balki milliy ijtimoiy ish hisoblanadi. «Alholis, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo momot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir»- deb aytub o'tgan edilar.

Shunindek jadidchilarning yirik namoyondalaridan biri Fitrat ham ta'lim sohasini tubdan yangilash va o'zgartirishlar kiritish haqida ko'plab ishlarni amalga oshirgan. Fitrat Buxoroda uch yuzga yaqin boshlang'ich ta'lim maktablar borligini aytib, lekin ta'lim tarbiya berish jarayoni, axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyat bermasliklarini aytib o'tgandi. U maktabni jamiyat rivojini ta'minlovchi asosiy bo'g'inlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Maktab bolalarga tarbiya berish, jamiyatdagi qashshoqliklar, o'g'rilik va razolatni yuqotish kerak deb biladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarga ularni yoshlarini inobatga olgan holda ta'lim tarbiya beriladigan bo'lsa kelajakda ular hayotda o'z o'rinlarini hech qanday

¹ PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.



qiyinchliklarsiz topib olishlari mumkin bo'ladi. Har bir narsaning ildiziga e'tibor berish kerak bo'lgani kabi biz ham bolalarni boshlang'ich sinfdagilaridayoq e'tibor berishimiz kerak, chunki bola yoshlikdan axloqli, tarbiyali bo'lmas ekan u o'sib ulg'aygandan so'ng, yani ildiz ortib ko'karganidan so'ng uni to'g'ri, haq yo'liga yo'naltrish qiyin bo'ladi. Shuning uchun ham biz boshlang'ch sinf o'qtuvchilariga alohida etibor bergan holda ularni xar tomonlama komil inson bo'lib ulg'ayishlari uchun bor kuch va etiborimizni qaramog'miz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 qarori // <https://lex.uz/docs/-3864155>.
6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta'lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1. – B. 77-81.
7. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 67 b.



8. Azimova N.E. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitish misolida). Ped. fan. fal. dokt. (PhD). ... dis. – Toshkent, 2012. – 178 b.

9. Ismoilova Z.Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). Ped. fan. dokt. ...dis. avtoref. – Toshkent: O'zPFITI, 2006. – 46 b.

10. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 1993. – 364 b.